

PATOLOGIYAGA KIRISH

ASOSIY PATOLOGIK TUSHUNCHALAR


Patologiya – (“pathos” kasallik, “logos” ta’limot) kasallik davomida organizmda ro’y beradigan biokimyoviy, struktural, funksional o’zgarishlarni o’rganadigan fan.

Umumiy patologiya – xar bir kasallik negizida yotagan abnormal stimul natijasida yuzaga keladigan mexanizmlarni o’rganadi.

Xususiy patologiya – har bir organlar sistemasida uchraydigan kasalliklarni o’rganadi.

KASALLIK – tashqi yoki ichki faktorlar natijasida organizm tuzilmalarining zararlanishi va funksionasining izdan chiqishi natijasida organizmning normal hayot kechirishining buzilishi.

ETIOLOGIYA – kasallikning sababi, uni keltirib chiqaradigan omil. Masalan jigar sirrozida sababchi ko’p hollarda alkogol hisoblanadi.




Ammo etiologik faktormavjud bo’lsada uni stimullovchi **sharoit** bo’lmaganligi uchun ko’p hollarda kasallik rivojlanmaydi:

- Ateroskleroz yuzaga kelishi uchun nafaqat yog’ almashinuvidagi buzilish balki chekish, ichish kabi zararli odatlar bo’lganda kasallikning rivojlanishi ehtimoli yuqori bo’ladi.
- Pnevmoniyada ham asosiy faktor pneumokokk bakteriyasi bo’lsada sovuq harorat organizmning bu bakteriya bilan zararlanishiga qulay sharoit yaratadi.

PATOGENEZ – kasallikning rivojlanishi, uning qay tarzda yuzaga kelishi va kechishi. Misol uchun jigar sirrozi patogenezi:

Alkogol jigarda yog’ sintezi uchun asetil KoA hosil qiladi va bu jigarning yog’ bosishiga sabab bo’ladi.



SIMPTOM – bu kasallik natijasida organizmda yuzaga keladigan **alohida klinik belgi** bo’lib, u bemor tomonidan sezilishi yoki shifokor tomonidan aniqlanishi mumkin:

1. Subyektiv simptomlar

Bemorning **o’zi his qiladigan** va o’zi aytib beradigan belgilar:

- Og’riq
- Bosh aylanishi
- Ko’ngil aynishi
- Holsizlik

2. Obyektiv simptomlar

Shifokor tomonidan ko’riladigan yoki o’lchanadigan belgilar:

- Isitma (tana harorati oshishi)
- Taxikardiya
- Teri rangining o’zgarishi
- Shish

Bu simptomlar klinik tekshiruv yoki laboratoriya orqali aniqlanadi.

3. Patognomonik simptom

Ma'lum bir kasallikka xos va deyarli faqat o'sha kasallikda uchraydi:

- "Kapalak shaklidagi toshma" → sistemali qizil yuguruk
- Kopluk dog'lari → qizamiq

4. Nospetsifik simptom

Ko'plab kasalliklarda uchraydi:

- Isitma
- Holsizlik
- Ishtaha yo'qolishi

SINDROM – bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, umumiy **patogenezga ega simptomlar majmuasi** bo'lib, ma'lum bir klinik holatni ifodalaydi.

Sindromning asosiy xususiyatlari

- Bir nechta simptomlardan tashkil topadi
- Umumiy sabab yoki mexanizm bilan bog'liq
- Turli kasalliklarda uchrashi mumkin
- Mustaqil tashxis emas (ko'pincha)

Sindrom turlari:

1. Klinik sindrom

To'g'ridan-to'g'ri bemorda kuzatiladi:

- Intoksikatsiya sindromi
 - o isitma,
 - o bosh og'rig'i
 - o holsizlik
 - o ko'ngil aynishi
- Og'riq sindromi

2. Laborator sindrom

Laborator natijalarga asoslanadi:

- Anemiya sindromi
- Yallig'lanish sindromi (ECHT↑, CRO↑)

3. Anatomik sindrom

Organ yoki tizim o'zgarishiga asoslanadi:

- Gepatomegaliya sindromi
- Splenomegaliya sindromi

4. Etiologik sindrom

Ma'lum sabab bilan bog'liq:

- Infekcion sindrom
- Allergik sindrom

Sindromga misollar

✚ **Nefrotik sindrom**
→ proteinuriya + gipoproteinemiya + shish + giperlipidemiya

✚ **Kushing sindromi**
→ semirish (oy yuz), striyalar, arterial gipertenziya

✚ **Metabolik sindrom**
→ semizlik + insulin rezistentlik + gipertenziya

KASALLIKNING OQIBATI – bu kasallik tugagandan keyin yoki uning kechishi davomida yuzaga keladigan **yakuniy natija**.

→ Ya'ni: kasallik **nimaga olib keldi?**

Oqibat turlari:

1. To'liq sog'ayish

- Organizm to'liq tiklanadi
- Hech qanday iz qolmaydi

2. To'liq bo'lmagan sog'ayish

- Kasallik o'tadi, lekin **qoldiq o'zgarishlar** qoladi
- Masalan: chandiqlik, fibroz

3. Surunkali holatga o'tish

- Kasallik uzoq davom etadi
- Remissiya va relapslar bilan kechadi

4. O'lim

- Eng og'ir yakuniy natija

Misol:

- o Pnevmoniya → sog'ayish yoki fibroz (oqibat)
- o Infarkt → chandiq hosil bo'lishi (oqibat)

ASORAT – bu asosiy kasallik davomida yoki natijasida paydo bo'ladigan, **qo'shimcha patologik holat** bo'lib, u kasallikni og'irlashtiradi.

→ Ya'ni: kasallikka **qo'shimcha muammo qo'shildi**

Xususiyatlari:

- Har doim ham bo'lavermaydi
- Kasallik kechishini og'irlashtiradi
- Ba'zida hayot uchun xavfli

Misollar:

1. **Pnevmoniyada** asorat: o'pka abstsessi, sepsis

2. **Qandli diabetda** asoratlari: nefropatiya, retinopatiya, neyropatiya

3. **Infarktda** asorat: aritmiya, yurak yetishmovchiligi

Oqibat

Asorat

Yakuniy natija	Qo'shimcha patologiya
Kasallik oxirida	Kasallik davomida
Har doim bor	Har doim emas
Natijani ko'rsatadi	Holatni og'irlashtiradi